



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH ME'ZONLARI

Yusufjon Azzamov Radjaboy o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasida

Katta o'qituvchisi, Ingliz filologiyasi fakulteti dekani

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

yu.azzamov@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15201036>

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimi tobora shaxsga yo'naltirilgan va interfaol bo'lib bormoqda. Bu jarayonda talabaning faolligi, mustaqil o'rganish qobiliyati va tashabbuskorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta'lim – bu o'quvchining bilim olish jarayonida o'zini boshqarishi, maqsadli ravishda bilimlarni izlab topishi, tahlil qilishi va qo'llay olishini nazarda tutuvchi ta'lim shaklidir. Ushbu maqolada mustaqil ta'limni samarali tashkil etish usullari hamda uni baholash mezonlari atroflicha tahlil qilinadi.

Kirish so'zlar: Avtomatik baholash, yarimavtomatik baholash, virtual ta'lim muhiti, kompetensiyaviy baholash.

KIRISH. XXI asr — raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi ham texnologik taraqqiyotdan faol foydalanmoqda. Shu jumladan, mustaqil ta'limga ham katta e'tibor qaratishimiz lozim. Bu talabaga zamonaviy o'quv metodlarini o'zlashtirish, ijodiy va tafakkur salohiyatini yuksaltirish imkonini beradi. Talabada mustaqil fikr yuzaga kelishi va uning faol bilim olishiga ko'maklashadigan har qanday mashg'ulot shakli mustaqil ta'limga kiradi. U auditoriyada ham, mustaqil ravishda, o'qituvchi rahbarligida yoki undan mustaqil holda amalga oshirilishi mumkin.

ASOSIY QISM. Bilamizki, talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan ko'nikmalar yildan yilga murakkablashib boraveradi. Mustaqil ta'lim, avvalo, talabaning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoji asosida shakllanadi. Bu ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi: Faollik – talaba bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Mas'uliyat – o'quvchi o'z o'zlashtirishi uchun javobgarlikni sezadi. Individuallik – har bir talaba o'zining qiziqishi, darajasi va tempiga mos ravishda ishlaydi. Motivatsiya – mustaqil o'rganish ichki rag'bat bilan bog'liq bo'lgan holda mustahkamlanadi. Mana shu tamoyillar asosida o'z ustida ishlagan talabaning bilim olish ko'nikmasida sezilarli natijalar ro'y berishi mumkin. Avvalambor, bizning vazifamiz - mustaqil ta'limni samarali tashkil etish. Bu xususida ko'plab so'rovnomalar o'tkazilgan. Mazkur savolga professor-o'qituvchilar tomonidan turlicha fikr-mulohazalar berilgan. So'rovnomada ishtirok etgan professor-o'qituvchilarning 29,6 foizi “Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim samarali tashkil etilgan”, 31,3 foizi “Samarali tashkil etilmagan” deb hisoblashsa, 39,1 foizi



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

“Qisman samarali tashkil etilgan” deb javob berishgan. So‘rovnoma natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, oliy ta‘lim muassasalarida mustaqil ta‘lim yetarli darajada tashkil etilmagan. Nazariy jihatdan barcha ishlar amalga oshirilgan, ammo amaliyotda ko‘plab kamchiliklar mavjud. Xususan, talabalar tomonidan mustaqil ta‘lim haqida tushunchaning yo‘qligi mustaqil ta‘limni samarali tashkil etishda muammolarga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, professor-o‘qituvchilarning ham mustaqil ta‘lim sifati bo‘yicha malakasini oshirish lozim. [1] Bundan tashqari, baholash me‘zoni haqida ham so‘rovnomalar o‘tkazilgan, ya‘ni baholanishda qaysi usul va metodlardan foydalanish ko‘proq samara berishi haqida fikrlar o‘rganilgan. Professor-o‘qituvchilar mustaqil ta‘limni baholashda og‘zaki savol-javoblar (blits so‘rovlar, aqliy hujum) o‘tkazish hamda interfaol metodlar (case study, BBB, Baliq skeleti)dan foydalanish samarali deb hisoblashgan. Yosh professor-o‘qituvchilar (25-35 yosh) guruhining 31 foiz mustaqil ta‘lim topshiriqlarini amaliyot hamda empirik tahlil jarayonlari bilan bog‘lovchi metodlardan foydalanib tashkillashtirish zarurligini takidlashmoqda. [2]

Hozirgi texnologiya rivojlanayotgan davrda an‘anaviy usullardan tashqari zamonaviy usullardan ham keng foydalanish mumkin. Masalan, Google Classroom, Moodle orqali avtomatik baholash (o‘quvchi topshirig‘ini tizim avtomatik ravishda tekshiradi, baho qo‘yadi va natijani chiqaradi. O‘qituvchining qo‘lda tekshirishiga hojat yo‘q) yoki yarim avtomatik baholash (bu holatda tizim ayrim qismlarini (masalan, testlarni) o‘zi baholaydi, lekin yozma ishlarni o‘qituvchi ko‘rib chiqadi va qo‘shimcha baho qo‘yadi) mumkin. Har bir rivojlanayotgan davlatlar ancha yuksalib olgan davlatlarning tajribasiga tayangani kabi biz ham xorijiy universitetlarning metodlarini o‘zimizda tatbiq etishimiz mumkin. Buyuk Britaniyaning York universitetida (University of York, 2023 yil QS dunyo universitetlar reytingida 1201-1500-o‘rin) talabalarning modul doirasidagi mustaqil ta‘limi sifatini o‘rganishda virtual ta‘lim olish muhitidan (VLE-virtual learning environment) keng foydalaniladi. VTMLar (virtual ta‘lim muhiti/makoni) har bir modul uchun o‘qituvchi tomonidan kiritilgan “ko‘rsatmalar qatlami” (instructional layer) vazifasini bajaribgina qolmay, ushbu onlayn sahifa orqali o‘qituvchi talaba bilan asinxron muloqot o‘rnatishi, modulga doir e‘lonlardan talabalarni boxabar qilish imkoniyatiga ega. Saytni bu shaklda loyihalash talabalarni aniq yo‘l xaritasi “road map” bilan ta‘minlaydi. Ushbu yo‘l xaritasi talabalarni asinxron ta‘lim resurslari hamda mashg‘ulotlar bilan mustaqil ta‘limlarini samarali amalga oshirishlarini nazorat qilib boradi. Universitetda baholash metod va mezonlari har 1 yilda qayta ko‘rib chiqiladi. [3] Kompetensiyaviy baholash. Buyuk Britaniyaning oliy ta‘limda kredit tizimini joriy etishga doir



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

qo'llanmasida qayd etilishicha, talabalarning o'quv modullarini baholashda modul uchun minimal talab sifatida belgilangan "o'quv natijalari", ya'ni egallanishi kutilgan bilim, ko'nikma hamda malakalarga tayaniladi. Bunda 1 modul uchun o'qituvchi boshchiligidagi darslar hamda mustaqil ta'lim qismi uchun alohida o'quv natijalari belgilanadi va baholanadi. Har bir modul uchun baholash metodlari tanlanayotganda o'qituvchi talabaga mustaqil tayyorgarlik uchun ajratilgan vaqt bilan bir qatorda, shu mustaqil bajarish topshirig'i talabdan talab qiladigan vaqtini inobatga olishi zarur. Misol uchun, mavzu doirasida taqdimot tayyorlagan va 15 daqiqada o'z ishini himoya qilishi kutilgan talaba ushbu vazifani bajarish uchun 6 soat vaqt sarflaydi. Yoki o'z izlanishlari natijasini 1500 so'zdan iborat insho sifatida tayyorlagan talaba bu inshoni yozishda ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish va insho ko'rinishiga keltirish uchun 11 soat shug'ullanadi. Talabaning mustaqil ta'lim soatlari unga berilayotgan topshiriqning bajarilishi talab etadigan soatlar bilan mos bo'lishi o'qituvchi tomonidan kafolatlanishi zarur. [4] Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish va baholashda xorijiy davlatlar tajribasidan o'rganish nafaqat o'quv jarayonini takomillashtirish, balki talabalarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va ularni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA. Mustaqil ta'lim shaxsni har tomonlama yetuk, zamonaviy kasb egasi bo'lishiga tayyorlaydi. Uni to'g'ri tashkil etish uchun o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati, aniq rejalashtirilgan metodika va adolatli baholash tizimi zarur. Mustaqil ta'lim – bu nafaqat ta'lim shakli, balki hayot davomida doimiy o'rganish, izlanish va o'zini rivojlantirish madaniyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.I.Yoldashev. Talabalarning mustaqil ta'limining zamonaviy o'quv jarayonida ahamiyati va o'rni bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent-2022.
2. Axmedova Maloxat Ergashevna. Modul-kredit tizimida talabalarning sifatli ta'lim olishida mustaqil o'qish metodikasi. *Международный научный журнал «Научный импульс»*. №9(100), часть 3. 1357-с.
3. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (O'quv qo'llanma) – T.: Tafakkur bo'stoni, 2011.
4. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari (tilshunoslik fanlari misolida). Monografiya. "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ. Toshkent - 2022. 173 bet.
5. Axmedova M.E. Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi (modul-kredit tizimida tilshunoslik fanlari misolida). // Metodik qo'llanma, Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ. Toshkent - 2022. 121 bet.
6. Mustaqil ta'lim va uni tashkil etish metodikasi. <https://eself-study.uz>.
7. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni. <https://genderi.org>.
8. "Mustaqil ta'lim va uni tashkil etish metodikasi". hm.tiame.uz